



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6/1 2024



*гуманитарные науки
естественные науки
технические науки*

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

6/1-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы суўалық берилген.*

Нөкис

Mirzayeva L.E. Umumta'lim maktablari geografiya ta'limida mediata'lim resurslaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	118
Haytbayeva S. R. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik jihatlari.....	122
Ismoilova D. M. Sinf rahbari o'quvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi.....	125
Mamatova A.M. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyati.....	128
Jabborova O. M., Matupayeva Sh. Z. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati.....	131
Mamatova A.M. Tarbiya pedagogikasi xususiyatlari.....	133
Kurbanov O.E. Magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual asoslari.....	136
Нургизарова З.Б. Мактаб раҳбарининг тарбиявий ишларни бошқаришдаги роли ..	140
Abdumalikov A.I. Mehnat tarbiyasi – ma'naviy tarbiyaning negizi.....	144
Musoyeva A.B. The perspectives of future professionals on improving their research skills through academic writing.....	148
Тожибоева Г.Р. Понятие и задачи педагогической диагностики в начальной школе	156
Jabborova O.M., Toshmurova D.D. Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari.....	159

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Rakhimova G.S., Rasulov M.A., Yakubov K.N. Ўзбекистон ССРда табиатни муҳофаза қилишдаги қонунларнинг аҳамияти.....	163
---	-----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Mashrabjonov U. Mental arifmetikaning rivojlanish bosqichlari.....	167
Xurramov O.Sh. Matritsalarini kriptografiyadagi tatbiqlari.....	172
Abduqodirova P.T., Ibaydullayev D. Interfaol usullar bilan python dasturlash tilini o'qitish.....	174
Ismoilov U. Fizika fanini o'qitishda stem yondashuvi va uning asosiy tamoyillari hamda komponentlari.....	177
Egamnazarova S.X. Kompyuter grafikasi fanlarini o'qitish istiqbollari.....	180
Ismoilov E.O. Differensial tenglamalarni mathcad va maple dasturlaridan foydalanib o'qitish metodikasi.....	183
Nortojiyev A.M. Fizikani arxitektura va qurilish fanlariga integratsiyasi asosida o'qitishni takomillashtirish.....	189
Jurayeva M.N., Abdiraxmonova R.E. Algebra fanini o'qitishda kontekstli topshiriqlardan foydalanish.....	194
Xakimova Yo.T. Informatika va axborot texnologiyalari darslarini 4 "K" modeli asosida o'qitish.....	197
Xurramov O. Funktsiyalar va ularning turli sohalaridagi tatbiqlari mavzusini yoritishda klaster metodidan foydalanish imkoniyatlari va ahamiyati.....	202



1. Гутник Ирина Юрьевна Педагогическая диагностика как компонент содержания подготовки будущего учителя // ЧиО. 2016. №3 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskaya-diagnostika-kak-komponent-soderzhaniya-podgotovki-buduschego-uchitelya>

2. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика: Пер. с нем.- М.: Педагогика, 1991. - 238 с. (Зарубеж.шк. и педагогика).

3. Тожибоева Г. Р. Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов //Наука и мир. – 2020. – Т. 2. – №. 1. – С. 32-33.

4. Тожибоева Гульмира Рифовна, Зилолахон Умарова ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ // SAI. 2024. №Special Issue 18. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-razvitiya-tvorcheskih-sposobnostey-studentov-v-protsesse-obucheniya>

5. Тожибоева Гульмира Рифовна. Педагогическая диагностика, Учебное пособие - Чирчик: «Zebo Prints», 2023. – 136 стр.

6. Тожибоева Г. Р., Мухамедшина Ш. Г., Pedagogika universitetida uzluksiz pedagogik amaliyotida pedagogic diagnostika, “Pedagog” respublika ilmiy jurnali, 7 – tom 4 – son/2024 - yil/15 – aprel., 510-513 б. <https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/view/10710/10680>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUV FANLARINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

**Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshtemirova Durdonaxon Doniyor qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti**

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quv fanlari, o‘qitish jarayoni, zamonaviy yondashuvlar, metodik tahlil, tashhishlash, bilim, ko‘nikma, malaka.

Ключевые слова: начальный класс, учебные дисциплины, учебный процесс, современные подходы, методический анализ, диагностика, знания, умения, навыки.

Key words: primary school, academic disciplines, educational process, modern approaches, methodological analysis, diagnostics, knowledge, skills, skills.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari muammosi to‘g‘risida fikr yuritilgan va mualliflarning yondashuvlari taqdim etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрена проблема современных подходов к преподаванию учебных предметов в начальных классах и представлены подходы авторов.

SUMMARY

The article examines the problem of modern approaches to teaching subjects in primary schools and presents the approaches of the authors.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘lim sifatiga erishish vazifasi qo‘yilib amalga oshirilmoqda[1]. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari muammosini tadqiq etish va bu borada metodik tizimlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e‘tiboringizni tortamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari mazmuni. Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quv fanlari quyidagi tarkiblar asosida o‘qitilayotganligini eslatib o‘tish lozim:

1) tabiiy fanlar;

- 2) aniq fanlar;
- 3) gumanitar fanlar.

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini bunday tarkibda o'qitish metodik yondashuvlarning zamonaviylashtirib borishni taqozo etmoqda. Chunki har bir yo'nalishdagi o'quv fanlarini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikaga asoslanayotganligi ma'lum[2]. Misol uchun, Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida shu o'quv fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqib metodikalar tanlanmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim bosqichida rang-barang metodikalarga amal qilish yuzaga kelganligini ta'kidlash lozim. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quv fanlarining davlat ta'lim standartlari va talablariga mos ravishda yagonalashtirilgan o'qitish metodikalarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni uyg'unlashtirish, ularda ishlab chiqilayotgan nazariy-metodik yondashuvlarni amaliyotga tadbiiq etish va boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish bo'yicha eng ilg'or tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning tadqiqot ishlarini ham uyg'unlashtirib borish va eng muhim yondashuvlarni amaliyotga tadbiiq etish kutilgan samarani beradi. Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari mazmuni ana shular bilan belgilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganib borish zaruriyati. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartlari va talablarining mazmuniga ko'ra, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida tipiklashtirilgan yondashuvlarga asoslanish taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish bo'yicha yondashuvlarni o'rganib borish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masala bo'yicha bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

- 1) o'quv fanlarini o'qitishni metodik tahlil qilib borish;
- 2) o'quv fanlarini o'zlashtirishni tahlil qilib borish;
- 3) o'quv fanlarini o'qitishning samaradorligini tashhislab borish.

Boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini o'qitishning metodik jihatdan tahlil qilib borilishi muhim masaladir. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikasini o'rganib borish, tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilg'or metodikalarini monitoring qilish va mamlakat miqyosida boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini o'qitishning yagonalashtirilgan metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda, o'quv fanlari turkumidan kelib chiqib metodikalarni individuallashtirishga ham e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni o'qitishda rang-barang metodikalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki gumanitar fanlar xususiyatlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini tarkib toptirish taqozo etiladi. Shu sababli mazkur masalada asosli yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish lozim[3].

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi masalasini ham tahlil qilish va bu borada zamonaviy yondashuvlarga asoslanish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlanib borish jarayonini o'rganib borish, ularda shakllanayotgan ko'nikmalarni kuzatib borish muhim ahamiyatga egadir. Chunki boshlang'ich sinf o'quv fanlari bo'yicha har yili yangi avlod darsliklari yaratilmoqda. Bunday darsliklardagi ma'lumotlar va ularning ifodalash usullarini tahlil qilib borish muhim ahamiyatga egadir. Chunki yangi avlod darsliklaridagi ma'lumotlarning muntazam yangilanib turishi boshlang'ich ta'lim samaradorligiga va o'quvchilarning yagonalashtirish o'zlashtirish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'quv fanlari bo'yicha yaratilayotgan yangi avlod darsliklarini ommaviy ravishda tahlildan o'tkazish va shundan so'ng undan foydalanishni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quv fanlari yangi avlod darsliklarini tayyorlashda ma'lumotlarni murakkablashtirish va ularning ifodalash metodikasini qiyinlashtirishdan voz kechish muhim ahamiyatga egadir. Umuman



boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'zlashtirish masalasida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi.

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish samaradorligini tashhislab borish muhim ahamiyatga egadir. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qitish metodikasini, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini va o'quv fanlarini umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tashhislab borish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan aniq fanlarni o'qitish metodikasini tashhislash muhim ahamiyatga egadir. Chunki keyingi paytlarda boshlang'ich sinflarda aniq fanlarni o'qitishda yangicha yondashuvlar tarkib topib borayotganligi ma'lum. Masalan, ko'pchilik aniq fanlar o'qituvchilari individual yondashuv vositasida fan olimpiadalari dasturlari bo'yicha ham qo'shimcha o'qitish jarayonini tashkil qilayotganligi ma'lum. Shu jihatdan milliy va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan fan olimpiadalarining dasturlarini tashhislab borish va ularning boshlang'ich sinf o'quv fanlari dasturlariga uyg'unlashtirish metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bunday metodika oliy pedagogik ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganish ahamiyati. Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganib borish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Bunda quyidagi amaliy natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim:

- 1) boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish bo'yicha metodikalarni yangilanishga erishish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning metodikalarini tipiklashtirish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ta'minlash.

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish metodikasini yangilab borish va bu borada asosli yondashuvlarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish samaradorligini har bir o'quv yilida o'rganib borish muhim ahamiyatga egadir. Xorijiy mamlakatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitish metodikasini har 5 yilda yangilanib borilishi bu borada amaliy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Yangilanayotgan metodikada o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini joriy qilib borish ham muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan har bir o'quv yili yakunida boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish samaradorligi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish metodlarini tipiklashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, o'quv fanlarini o'qitishning tajriba-sinovdan o'tgan metodlarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda, mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikalaridan tajriba-sinov asosida foydalanish boshlang'ich ta'limda o'qitishning tipiklashtirilgan metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bugungi kunda asosiy maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari, ularning bilim va ko'nikmalarin rivojlantirib borish jarayonini kuchaytirish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Buning uchun boshlang'ich ta'limda tipiklashtirilgan metodlar majmuidan foydalanish kutilgan samarani berishini eslatib o'tish joiz.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichidagi eng muhim masalalardan biri o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishishdir. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan tabiiy, aniq va gumanitar fanlar turkumini boshlang'ich sinf o'quvchilari teng ravishda o'zlashtirishi kerak. Albatta bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishi va layoqati ham hisobga olinishi lozim. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish va ularni o'zlashtirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masalada pedagogik ilmiy tadqiqotlarda bayon qilib kelinayotgan yondashuvlarni uyg'unlashtirish va boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini yagonalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishish ta'minlanishini eslatib o'tish lozim.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari muammosi bo'yicha nazariy va metodik tadqiqotlarni yaratish muhim ahamiyatga egadir. Bunday tadqiqotlar natijasida boshlang'ich ta'lim sifatiga erishish yo'nalishlariga ega bo'linadi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. Jabborova O. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. Darslik. – Toshkent, 2023
3. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2021

ISSN 2181-7138

Т. Н. Кары Ниязий атындагы Ўзбекистан педагогикалык
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындагы Каракалпакстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

Некие — 2024

Басып шыгыуга жууапкер:
А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспага таярлаган:
А. Тилегенов

Компьютер де таярлаган:
П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мэнзил: Некие кутасы, Ерназар Алакез кешеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkj@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналга келген магалалларга жууап куштарылмайды, журналда ээрияланган макушалардан алынган узин дилер «Мугаллим уэм узликсиз билимлендириу» журна- лынан алынды, деп керсетилиуи шэрт. Журналга 5-6 бет келеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге кабыл етиледу. Мақрлада келтирилген мағлыуматларга автор жууапкер.

Оригинал-макеттен басыуга рухсат етилди 23.12.2024. Форматы 70x100V₈

«Тайме» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шэргли б.т. 31. Нашр. т. Нускасы Буйыртпа №